

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM
TIZIMIDAGI HOLATI VA TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI

Kamolova Munojot Jaloldinovna

ADPI tayanch doktoranti

E-mail: kmj@gmail.ru

Tel: +998 90 625 63 82

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20556187>

Annotatsiya: XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatli taraqqiyoti inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borib, shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirmoqda. Ommaviy axborot vositalarining raqamli platformalarga transformatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlarning keng qamrovli tarqalishi, sun'iy intellekt va biosensor texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida talabalar nafaqat axborotni iste'mol qiluvchilar, balki uni yaratuvchilar, tarqatuvchilar va tanqidiy baholovchilar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday sharoitda talabalarning axborotni tanqidiy idrok etish, media mahsulotlarining ontologik va gnoseologik asoslarini anglash, media orqali yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi ma'naviy immunitet hosil qilishga oid kompleks kompetensiyasini shakllantirish – ya'ni mediafalsafiy madaniyatni rivojlantirish bugungi oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Maqolada Zamonaviy raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatli taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mobil ta'lim, zamonaviy pedagogik tadqiqotlar, ommaviy axborot vositalari.

Аннотация: В современную цифровую эпоху стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий проникло во все сферы человеческой жизни, радикально изменив отношения между индивидом, обществом и государством. В контексте трансформации средств массовой информации в цифровые платформы, широкого распространения социальных

сетей, развития искусственного интеллекта и биосенсорных технологий студенты становятся не только потребителями информации, но и её создателями, распространителями и критическими оценщиками. В таких условиях формирование у студентов комплексной компетенции в критическом восприятии информации, понимании онтологических и эпистемологических основ медиапродуктов и формировании духовного иммунитета к чуждым идеологическим влияниям через средства массовой информации – то есть развитие медиафилософской культуры – стало одной из приоритетных задач современной системы высшего образования. В статье анализируется стремительное развитие современных цифровых информационно-коммуникационных технологий с социально-исторической точки зрения.

Ключевые слова: Современные цифровые информационно-коммуникационные технологии, мобильное образование, современные педагогические исследования, средства массовой информации.

Abstract: In the modern digital age, the rapid development of information and communication technologies has penetrated into all spheres of human life, radically changing the relationship between the individual, society and the state. In the context of the transformation of mass media into digital platforms, the widespread use of social networks, the development of artificial intelligence and biosensor technologies, students are emerging not only as consumers of information, but also as its creators, distributors and critical evaluators. In such conditions, the formation of students' complex competence in critical perception of information, understanding the ontological and epistemological foundations of media products, and the formation of spiritual immunity against alien ideological influences through the media - that is, the development of media-philosophical culture - has become one of the priority tasks of today's higher education system. The article analyzes the rapid development of modern digital information and communication technologies from a socio-historical perspective.

Keywords: *Modern digital information and communication technologies, mobile education, modern pedagogical research, mass media.*

Pedagogik tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, an'anaviy va raqamli ta'lim vositalarining o'zaro integratsiyalashuvi talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishiga yordam beradi. Chunki, ayni paytda bugungi kunda global miqyosda faoliyat ko'rsatayotgan va ta'sir doirasi katta bo'lgan telekanallar va axborot agentliklari borligini ham ta'kidlash zarur [1, 125]. Tadqiqotlarda aniqlanganidek, integrativ yondashuvlar orqali talabalarda nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalar ham rivojlanadi. Raqamli vositalardan foydalanib o'qitiladigan kurslarda talabalarning kognitiv yukini to'g'ri taqsimlash, bilimlarni tezkor o'zlashtirish va aniqlashtirish imkoniyatlari pedagogik jihatdan samarali ekanligi ko'rsatilgan. Buning natijasida talabalarda kompleks fikrlash va murakkab muammolarni yechish qobiliyati rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanadiki, elektron ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning axborot bilan ishlash qobiliyatini yaxshilab, ularning axborot manbalarini tanqidiy baholash ko'nikmasini ham shakllantiradi. Elektron resurslarning ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi, ta'limning shaxsiylashtirilgan shakllarini rivojlantirishga va o'quv materiallarini talabalarning individual ehtiyojlariga muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Didaktik ta'minotning samarali tashkil etilishi pedagogik jarayondagi eng muhim vazifalardan biridir. An'anaviy va zamonaviy ta'lim vositalarining pedagogik tadqiqotlar asosida to'g'ri integratsiya qilinishi ta'lim sifatini oshirib, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik nazariyalar va innovatsion metodikalar muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalari (OAV) va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni beqiyosdir. Shu bilan bir qatorda axborot urushi deb yanada raqib ustidan axboriy hukmronlikka erishish va shuning evaziga unga moddiy,

mafkuraviy yoki boshqacha zarar yetkazish uchun davlatning harbiy kuchlari, hukumati hamda xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar va operatsiyalar majmuasiga aytiladi" [2, 203]. "Bunday mafkuraviy hurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini, o'ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi" [3, 14]. Bu vositalar pedagogik amaliyotda talaba yoshlarning media savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni chuqurroq tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Ommaviy axborot vositalari ta'lim jarayonida turli xil pedagogik vazifalarni amalga oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Pedagogik tadqiqotlarga ko'ra, OAV talabalarning tahlil qilish, kritik fikrlash va ma'lumotlarni xolis baholash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Televidenie, radio, gazetalar va internet resurslar orqali olingan axborotni talabalar tahlil qilib, uning ishonchliligini tekshirish va axborot manipulyatsiyalarini aniqlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, OAV orqali ta'lim jarayonini tashkil qilish talabalarning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy muammolarni to'g'ri tushunishlari va bu muammolarga nisbatan o'z munosabatlarini ilmiy asoslab berishlari uchun muhimdir. Buning natijasida talabalar ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokchiga aylanib, o'zlarining shaxsiy mas'uliyat hissini kuchaytiradilar.

Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi pedagogik amaliyot uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi. "Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Masalan, Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengayyapti. Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir" [4, 23]. Facebook, Instagram,

Twitter, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlar pedagogik jarayonda talaba yoshlarning bir-biri bilan hamkorligini kuchaytirish va interaktiv o'quv muhitini yaratishda samarali vosita hisoblanadi. Pedagogik tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalarga o'quv materiallarini yetkazish, talaba-tadqiqotchi loyihalarini tashkil etish va o'zaro muloqotni amalga oshirish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar talabalarda ijtimoiy faollikni va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar OAV va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning bir qator metodikalarini tavsiya etadi. Ulardan biri – media kontentni tanqidiy tahlil qilish usulidir. Talabalar OAVda tarqatilayotgan xabarlarining haqiqat yoki soxtaligini, manfaatdorlik darajasini va manipulyativ elementini aniqlashni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar talabalarda axborotni xolis va tanqidiy baholash qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Yana bir pedagogik usul – ijtimoiy tarmoqlarda jamoaviy o'quv loyihalarini tashkil qilishdir. Talabalar guruhlarda ishlash orqali ijtimoiy tarmoqlardagi bilim va ma'lumotlarni tarqatish, muhokama qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Pedagogik tadqiqotlarga ko'ra, bu metodika talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirib, ularda muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, OAV va ijtimoiy tarmoqlardan pedagogik maqsadlarda foydalanish ta'lim jarayonida talabalarning mediasavodxonligini oshirishda, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali ekanligi tasdiqlangan. Shu bilan birga, pedagoglarga bu vositalarni to'g'ri va maqsadli qo'llash, talabalarga axborotning haqiqiy va soxta ekanligini farqlashni o'rgatish muhimdir.

Shu o'rinda tak'kidlab o'tish kerakki, hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan, bizning milliy qadriyatimizga butkul yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma'lumotlar-internet tarmog'i orqali yosharning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi xavfi tobora ortmoqda" [5, 260]. OAV va ijtimoiy tarmoqlarning pedagogik jihatdan to'g'ri foydalanilishi talabalarda

axborotni tanqidiy baholash, ijtimoiy faollik va mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning tavsiyalariga muvofiq ushbu vositalardan pedagogik amaliyotda keng foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Smartfonlar, planshetlar va boshqa elektron gadjetlar orqali ta'lim jarayoniga raqamli kontentni integratsiya qilish talabalarning kundalik hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning mediafalsafiy bilimlarini shakllantirishga yordam beradi:

- Mobil ilovalar orqali ta'limiy kontentni tarqatish.
- Gadjetlar orqali o'zaro hamkorlik va hamjamiyatni rivojlantirish imkoniyati.
- Raqamli matnlar va mobil ta'lim muhiti talabalarning kognitiv va hissiy idrokini o'zgartirib, ularning raqamli media bilan munosabatini yanada chuqurlashtirib boradi.

1946 yil AQShning Sent-Luis shahrida radiotelefon aloqa tizimi ham, u hozirgi mobil aloqaning ilk ko'rinishi bo'lgan dastlabki uyali aloqa ham AQShda (1972 y.) paydo bo'ldi. Aynan ana shu kashfiyotlar keyinchalik axborot va axborotlashtirish sohasidagi olamshumul voqea-1986 yil Internetning paydo bo'lishiga olib keldi" [6, 13]. Zamonaviy ta'lim jarayonida elektron gadjetlar va mobil qurilmalardan keng foydalanish yangi pedagogik imkoniyatlarni ochib bermoqda. Pedagogik tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, smartfon, planshet va boshqa mobil qurilmalardan o'quv jarayonida foydalanish talabalarda o'quv motivatsiyasini oshirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Mobil ta'lim (m-learning) – bu pedagogik jarayonda mobil qurilmalar yordamida amalga oshiriladigan ta'lim shaklidir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, mobil ta'lim talabalarga mustaqil ta'lim olish, o'z vaqti va o'rnini erkin tanlash imkoniyatini beradi, shuningdek, talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini va motivatsiyasini oshiradi. Mobil qurilmalar pedagogik jarayonni personallashtirishga imkon berib, talabalarning individual o'quv

ehtiyotlarini hisobga oladi. Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra, personallashtirilgan ta'lim muhitida talabalar o'zlashtirish samaradorligi sezilarli darajada oshadi va o'zlashtirilgan bilimlar amaliyotda qo'llash uchun ham qulay bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediafalsafiy bilimlarini shakllantirish metodikasining didaktik ta'minotiga an'anaviy va zamonaviy o'qitish usullari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va elektron gadgetlar hamda semantik va ontologik yondashuvlarni integratsiya qilish kerak. Bu yondashuvlar talabalarning zamonaviy jamiyatda o'z o'rnini topish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Назаров Қ., Очилов А. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. -Б. 125-126.
2. Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. 2-нашр. М.: Горячая линия - Телеком. 2006. -Б.203.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. -Б.14.
4. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т., Ўзбекистон, 2000, 23-бет.
5. Муҳаммад Амин Яхё "Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя" Ёрдамчи ўқув қўланма-Тошкент: Movarounnahr, 2016.260-261.
6. Чернов А.А. Становление глобального информационного общества: проблемы и перспективы. -Москва: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2003. с 13.